

PEDAGOGIK TA'LIM TIZIMIDA MILLIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI

*Shuxratjonova Rixsinisaxon Nasrulla qizi
Oqilova Zuhra Ikromjon qizi
NamDU Psixologiya yo'nalishi talabasi*

Annottatsiya: Ushbu maqolada kadrlar tayyorlash jarayonida milliy qadriyatlarimizni uyg'unlashtirish va uning samaradorligi haqida fikr yuritiladi.

Аннотация: В данной статье размышляется о гармонизации наших национальных ценностей в процессе подготовки кадров и его эффективности.

Abstract: This article reflects on the harmonization of our national values in the process of training and its effectiveness.

Kalit so'zlar: milliy qadriyatlar, demokratiya, kadrlar, millat, mentalitet

Ключевые слова: национальные ценности, демократия, персонал, нация, менталитет.

Key words: national values, democracy, personnel, nation, mentality.

"Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur"

Sh.Mirziyoyev

Avloddan avlodga necha yillardan buyon shakillanib kelayotgan milliy tariximizni yaratish uchun avvalo, bizda milliy ruh bo'lishi kerak! Milliy ruh deganda o'zbek farzandlarining barcha xulq—atvorida, yutish turishida milliyligimizni namoyon etib turadigan o'ziga xos sifatlari bo'lmog'i tushuniladi. Globallashuv jarayonida esa yurtimizga juda ko'p yangiliklar, imkoniyatlar kirib keldi va shu bilan birga milliyligimizga zid bo'lgan urf—odatlar ham mavjud bo'lib, turli muammolarni yuzaga keltirmoqda. Bunday jarayonlar avj olib ketmasligi uchun davlatimiz rahbari tomonidan maktablar, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qator ishlar ya'ni:

Mamlakatimizda ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish, bo'lajak pedagog kadrlarni xalqaro standartlar asosida tayyorlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, maktabgacha ta'lim qamrovining oshishi, 11 yillik umumiyl o'rta ta'lim tizimining joriy qilinishi hamda oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash ko'lamining kengayishi munosabati bilan yuqori malakali mutaxassislarga nisbatan ehtiyoj ham tobora oshib bormoqda. Bu esa o'z navbatida, pedagog kadrlar tayyorlashga ixtisoslashgan xorijiy hamda oliy ta'lim muassasasi faoliyati yo'lga

qo‘yilishiga zamin yaratdi.[1] Ta’lim sohasi uchun yuqori darajali kadrlar tayyorlash jarayonida milliy qadriyatlarimizni ham uyg‘unlashtirib borish, keljakda insonlarni o‘zi tug‘ilib o‘sigan ona yurtiga ehtirom, o‘z taqdirini mana shu yurtsiz tasavvur qila olmaslikdek ezgu sifatlarni o‘zida mujassamlashga yordam beradi. Yurtimizning ko‘p asrlik qadriyatlarini bilmasdan milliy g‘ururni tuyish mumkin emas.

Xalqimizning ko‘p yillardan buyon shakillanib kelayotgan milliy qadriyatları uzoq tarixiy jarayonda vujudga kelgan. Zero, milliy qadriyatlarimiz - ona yurtga ehtirom, kattalarga doimiy hurmat, har qanday sharoitda ham hayo va andishani saqlash va shu kabi fazilatlari bilan boshqa xalqlardan ajralib turadi[2]. Xalqaro maydonda mafkuraviy hamda informatsion kurashlar kuchayib borayotgan hozirgi tahliklali kun: turli mafkuraviy hurujlardan himoyalana oladigan, milliy mafkuraviy hislatga ega, atrofda yuz berayotgan voqealarga befarq bo‘lmagan, milliy qadriyatlarimizdan g‘urur hissini sezib yashaydigan iqtidorli kadrlar bo‘lib yetishishlarini talab qilmoqda. Mafkuraviy hamda informatsion kurashlar deganda, bugungi kunda “Demokratiya” tushunchasini yoshlarning aksariyat qismi noto‘g‘ri talqin qilishi oqibatida, milliyligimiz hamda milliy urf-odatlarimizga bo‘lgan hurmat, e’tibor sustlashib bormoqda. Ya’ni demokratiya tushunchasini liberallizm tushunchasi bilan alishtirib qo‘yishmoqda. Natijasi esa hammamizga ma’lum, milliyligimizga tahdid soluvchi odatlar shakillanyapdi. Bunga birgina misol tariqasida, bugungi kundagi o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida yuzaga kelayotgan humatsizliklarni aytishimiz mumkin. Barchamizga ma’lum azaldan xalqimiz, “Ustoz–otangdek ulug” degan hikmatni bejiz aytishmagan. O‘tgan ota – bobolarimiz ustoz–u muallimlarini qadrini yaxshi bilishgan va shunga yarasha hurmat, ehtirom ila muomila qilishgan. Ammo bugungi kunga kelib, barchasi unutilmoqda...

Albatta, bunday jarayon yanada avj olib ketmasligi uchun ta’lim jarayoniga milliy qadriyatlarimizni uyg‘unlashtirmog‘imiz zarur. Ya’ni, milliy axloqiy qadriyatlarimizni hayotimizda tutgan o‘rnii haqida bo‘lajak kadrlar ongiga pedagoglar tomonidan tarbiya metodlari orqali ijobjiy singdirish; demokratiya aslida nima? Ushbu tushunchani to‘g‘ri talqini qanday? Mafkuraviy tahdidlardan himoyalish va shu kabi savollarga javob bergen holda ta’lim jarayonini olib borishimiz Milliy mentalitetimizni yuksaltiradi. Zero, milliy mentalitet millatimizning aqliy intellektual salohiyati hamda ruhiy psixologik o‘ziga xosliklarini ko‘rsatib beradi. Chunki, xarakterdagи o‘ziga xoslikning negizini ijtimoiy muhit ya’ni xaqlning tarixiy tajribalari, urf-odatlari va marosimlarining tizimi tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, bugun milliy an'anlar, urf-odatlar, qadriyatlar, necha yillardan buyon o‘tib kelayotgan xalq og‘zaki ijodlari, milliy o‘yinlar hamda ularda ifodalangan g‘oyalarni yoshlар ongiga singdirishimiz buni boshlang‘ich ta’limdan boshlashimiz zarur.

Foydalaniman adabiyotlar:

1. [1] Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi. Milliy g‘oya: targ‘ibot texnologiyalari va atamalar lug‘ati. “Akademiya” nashriyoti. T.:2007
2. [2]<https://lex.uz>
3. Haydarjon J. SHAXS IJTIMOIY XIMOYASIZLIGINIOGISHGAN XULQ ATVORGA TASIRINI IJTIMOIY PSIXOANALITIK MEXANIZMLARI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 9-12.
4. Odilboyevich, J. H. (2023). SHAXSLARARO MULOQOT DAVOMIDA MULOQOTNING VERBAL VA NOVERBAL HARAKATLARDA SHAXXNING KOZ QARASHLARI VA YUZ MIMIKASIGA QARAB YOLG ‘ON ALOMATLARINI ANIQLASHNING PSIXOLOGIK TAVSIFI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 15(5), 59-64.
5. Курбанова З. Касбий аутоидентификация шаклланишининг босқичлари //Oriental Art and Culture. – 2020. – №. II. – С. 175-179.
6. Qizi, Turgunpolatova Musharraf Husniddin. "Psychological factors of aggressive behavior in teenagers." (2021).
7. Mirvaliyeva M. OILADAGI SHAXSLARARO MUNOSABATLARDA SHAXS AGRESSIVLIGI MUAMMOSI //“SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM”. – 2022.
7. Бадритдинова, М. Б. (2014). НЕКОТОРЫЕ СОВРЕМЕННЫЕ ВОПРОСЫ ПСИХОЛОГИИ ОБУЧЕНИЯ. ИНСТИТУТЫ И МЕХАНИЗМЫ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ: МИРОВОЙ ОПЫТ И РОССИЙСКАЯ ПРАКТИКА, 37.
- 8 . Бадритдинова, М. Б. (2016). ПРОГРЕССИВНЫЕ И РЕГРЕССИВНЫЕ ТИПЫ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ. NovaInfo. Ru, 2(40), 199-202.
- 9 . Бадритдинова, М. Б. (2016). ИНТЕНСИВНОСТЬ СТИМУЛА И АНАЛИЗ КОГНИТИВНЫХ ПРОЦЕССОВ. NovaInfo. Ru, 3(42), 295-300.
10. Baxromovna, B. M. (2019). KOGNITIV USLUB BILAN BOG’LIQ METAUSLUBLARNING RIVOJLANISHI. Педагогика ва психологияда инновациялар, (6).